

MATEMATIKA FANI BILAN YARATUVCHANLIK VA FIKRLASHNI O'STIRISH

Xaydarova Lola Temirovna

*Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 25-o'rta ta'lim maktabining
Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada matematika fanida tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyati va uning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, tanqidiy va kreativ fikrlash, murakkab moammolar, dasturining negiz jarayoni.

O'rta ta'limda matematika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari bir qancha bo'lib, ulardan inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish eng ustuvor tushunchalardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PQ-4387-son qarorining qabul qilinishi, matematika fani o'qituvchilarining jamiyatdagi hurmatga sazovor o'rni va ularning zimmasida naqadar ma'suliyatli vazifa borligini yana bir bor eslatib o'tdi. Tanqidiy va kreativ fikrlash nima, va nima uchun ularni matematika bilan bog'liqlikda o'rganish muhim hisoblanadi? Raqamlarni kundalik hayotda matematikaga murojaat qilish deb tushunilsa. "Tanqidiy raqamlash" atamasi esa ko'p tarmoqli tushunchadir. Matematikani o'rganishning asosiy vazifalaridan biri bu matematik qobiliyatga ega bo'lish, oddiy va murakkab moammolarni yechish ko'nikmasi va eng asosiysi raqamlardan tashkil topgan dunyoni bu mahorat orqali eng yaxshi maskanga aylantirishdir. Avstraliyadagi matematika ta'lim dasturi o'qituvchilarga matematikani tanqidiy va kreativ fikrlash orqali o'rgatishning ajoyib imkoniyatini taqdim qiladi. Bu ta'lim dasturining negiz jarayoni hisoblanadi. Avstraliya O'quv Rejasiga ko'ra o'qituvchilardan to'rt mutaxassislik: Muammoni Yechish, Sabab Ko'rsatish, Ravonlik va Anglash bo'yicha murojaat qilishlari so'raladi. Muammoni yechish va sabab ko'rsatish tanqidiy va kreativ fikrlashni talab qiladi. Har bir matematika darsida o'quvchilarni tanqidiy va kreativ fikrlashga jalb qilish muhim sanaladi. Nima uchun? Tanqidiy va kreativ fikrlash darsda joriy qilish orqali, nafaqat darsning samaradorligini oshiramiz, balki matematikaning asosiy tushunchasini anglash va faktlarni eslab qolish mahoratini shakllantiramiz. O'quvchilar uchun o'rganish ma'noliroq va maqsadliroq bo'lib boraveradi. Qachon va

qaysi vaqtda tanqidiy va kreativ fikrlashni ilgari surish mumkin? Fikrlashni targ'ib qiluvchi ko'plab asboblar va usullar mavjud. Bir qancha muammoni yechish usullari orqali jarayonni boshlash yaxshi albatta, ammo siz biroz qisqaroq yoki uzunroq amallardan foydalanishingiz ham mumkin. Ochiq – yakunlanuvchi vazifalar bajarish uchun osondir, barcha o'rganuvchilarning muvaffaqiyatga erishishiga va tanqidiy va kreativ fikrlashlariga qo'yib bering. Tanqidiy va kreativ fikrlashga kimlar jalb qilinishlari kerak? Bu faqat o'quvchilar uchunmi? Yo'q! O'qituvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashga jalb qilinishlari kerakligining bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, bu o'quvchilarga bu kabi usulda fikirlashda o'rnak bo'lish demakdir. O'quvchilar odatda matematikaga oq yoki qora, to'g'ri yoki noto'g'ri deb qarashadi. Ular kreativ va tanqidiy bo'lishni, so'rashni o'rganishlari kerak. Ular tadqiqot va izlanish o'qazish uchun jalb qilinishga ruhsatlari borligini his qilishlari kerak. Ular matematika foydalanuvchilaridan ishlab chiqaruvchilarga aylanishlari kerak. Ikkinchidan, o'qituvchilar amaldagi matematika o'qituvchilari sifatida tanqidiy va kreativ fikrlashlari lozim. Biz doimiy ishini baxolab boruvchi, amaldagi ish va baxolash, o'quvchilarni guruhlariga ajratishni o'z ichiga oluvchi ish rejasi tog'risida tanqidiy fikirlovchi, texnologiyadan foydalanuvchi va nihoyat bolalarning matematikani samarali o'rganishlari to'g'risida o'z qarashlariga ega bo'lgan mulohazali amalyotchi bo'lishimiz kerak. Tanqidiy va kreativ fikrlash rad qilib bo'lmaydigan tushuncha bo'lib, agar biz kelajak avlodni ishlashga va doimiy o'zgarib borayotgan dunyoga tayyor bo'lishini istasak, ularni doim eng asosiy o'rinlarda qo'yimog'imiz lozim. Bu tushuncha nafaqat kelajakka tayyor bo'lishga yordam beruvchi, balki yuqori malakali o'quvchilarni yetishtirishga yordam beradi, va matematika fanini foydali va qiziqarli bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Sh.M. Mirziyoyev. 2016. Toshkent. —O'zbekiston.
2. "Haqiqat manzillari". Saida Jo'rayeva. 2009. Toshkent.
3. "Nega mantiq?" yoxud "Matematika-10" Shuhrat Ismoilov. 2018. Xabar.uz